

**Andijon davlat tibbiyot instituti, vrachlar malakasini  
oshirish va qayta tayyorlash fakulteti  
terapiya kardiologiya, gastroenterologiya va tez yordam  
kafedrasi**



**Kafedra mudiri, tibbiyot fanlari**

**MAMASOLIEV NE'MATJON  
SOLIYEVICH**

**Ish vaqti:** 8:00 – 15:00.

**Tel:** +998906258346

**e-mail:** [prof. mamasaliyev.ns@mail.ru](mailto:prof.mamasaliyev.ns@mail.ru)

**VRACHLAR MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA  
TAYYORLASH FAKULTETI  
TERAPIYA KARDIOLOGIYA, GASTROENTEROLOGIYA VA  
TEZ YORDAM KAFEDRASI TARIXI VA FAOLIYATI**

Kafedra 1984-yilda ochilgan, turli yillarda dotsent Z.I.Xasanova va professor T.Z.Jumaboevlar kafedra mudiri lavozimida ishlashgan. 2011 - yildan kafedra mudirligiga tibbiyot fanlari doktori, professor Ne'matjon Soliyevich Mamasoliev tasdiqlangan. Jamoada yetuk mutaxassis-kadrlar shakllantirilgan va faoliyat ko'rsatib, mamlakatimiz hamda hamdo'stlik davlatlari miqyosida shuhrat qozongan.

Kafedra mudiri N.S.Mamasoliev mamlakatimizdava MDH da tanilgan olim, VDNX bronza medali (1979) sovrindori bo'lgan, "Mustaqillik" nishoni medali (1991 va 2006 yy) va bir necha marta Andijon viloyati hokimi hamda Sog'liqni saqlash Vazirining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. 2013- yili O'zbekiston Sog'liqni saqlash a'lochisi medali bilan mukofotlangan. Jahonda taniqli rus kardiologiya maktabini o'tagan va RF Moskva kardiologiya ilmiy markazida nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan. 1988-yildan tibbiyot fanlari doktori, professor. Olim "Profilaktik tibbiyot ilmiy maktabini" O'zbekistonda ilk bor yaratgan va uning atrofida yuqori malakali mutaxassis ilmiy

kadrlarni to'plab, mamlakatimiz fanini rivojlanishiga ulkan hissasini qo'shgan. N.S.Mamasoliev ilmiy rahbarligida deyarli dunyoda ikkinchi (AKSH dagi Framingem epidemiologik tekshiruvdan keyin) uzoq muddatli (39 yillik epidemiologik tekshiruvlarni), turli shaklli va mohiyatli epidemiologik tadqiqotlar O'zbekiston sharoitida tashkil etilgan, o'tkazilgan va amaliyotga tatbiq qilingan ularning natijalari 17 ta yangi ilmiy-amaliy topilma tarzida joriy qilingan. Uning rahbarligi va ilmiy maslahatchiligi bilan 54 ta dissertatsiya (15 ta doktorlik va 37 ta nomzodlik) tayyorlangan, shundan 37 tasi himoya qilingan. Olim 3386 ta ilmiy ishlar chop ettirib, MDH ko'lamida eng yuqori natija ko'rsatgan, bular: 16 ta darslik, 56 ta o'quv qo'llanmalari, 17 ta monografiya (hammualiflikda), 548 ta ilmiy-uslubiy tavsiyanomalardir. O'zbekiston ilm-fanini xalqaro miqyosga olib chiqishda, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlab berishda, amaliy tibbiyotga zamonaviy standart va texnologiyalarni kiritishda o'ta faollik ko'rsatgan. Ko'plab jamoat ishlarida – ixtisoslashgan kengash a'zosi, OAK eksperti, muammolar hay'ati raisi, bir nechta jurnallar (jumladan, xalqaro miqyosdagi) hay'ati a'zosi, terapevtlar ilmiy jamiyati raisi, turli yillarda institut 1 prorektori, davolash ishlari, ilmiy ishlar hamda tashqi aloqalar bo'yicha prorektor lavozimlarida faoliyat olib borib, ibratli inson, tashabbuskor, fanga fidoiy olim, yoshlarga ustoz va talabalarga murabbiy sifatida hurmatga sazovor bo'lgan.

Zamonaviy ilmiy manbalar, klinik tavsiyanomalar, o'quv adabiyotlari, ilmiy va amaliy tibbiyotning eng yangi yutuqlari durdonalarini to'plab o'quvchi kursantlarga etkazadi.

Kafedrada 15 ta ilmiy yo'nalish belgilangan va bu yo'nalishlar bo'yicha profilaktik, klinik, ekologik, klimatopatologik va farmako-epidemiologik tadqiqotlar olib boriladi.

Kafedrada 3 mingdan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan. Davlat ilmiy dasturlari bajarilgan. Faqat oxirgi yilning o'zida 5 ta darslik va 12 ta o'quv qo'llanma yaratilib chop etilgan. Hozirgi paytda kafedra 11 doktorantga ilmiy rahbarlik olib borilmoqda.

Jamoaning ilmiy natijalari bo'lib fanda ilk bora aksariyat yurak-tomir va surunkali noinfeksion kasalliklarning qator etiologik yangi va endemik xatar omillari ochilgan holda tasdiqlab berildi.

Kafedra rahbarligida zamonaviy profilaktik tibbiyotga asos solinib, mamlakat fani ravnaqiga sezilarli hissasini qo'shayotgan va tan olingan ilmiy maktab yaratilgan. Ushbu maktab Respublikaning turli viloyatlari davolash muassasalari va ilmiy markazlariga kadrlar tayyorlab bergan, tayyorlab bermoqda.

Kafedra Evropa kardiologiya jamiyati, Ukrainaning Kiev va Zaporozhe tibbiyot universiteti, Rossiya Kardiologiya ilmiy jamiyati, ko'plab ilmiy tadqiqot

instituti hamda oliy o'quv yurtlari bilan, Turkiyabon davlatlar kardiologiya assotsiatsiyasi, Markaziy Osiyo hamda Hamdo'stlik mamlakatlari kardiologlari assotsiatsiyalari bilan uzviy hamkorlik o'rnatgan, mamlakatning barcha tibbiy ilmiy markazlari, oliygohlari hamda Qirg'iziston milliy kardiologiya va terapiya markazi bilan doimiy ilmiy aloqada bo'lib keladi. Rossiya Federatsiyasining Noinfeksion kasalliklar profilaktikasi davlat ilmiy markazi (Moskva) olimlari va mutaxassislari bilan uzviy aloqa o'rnatilgan, hamkorlik qilinmoqda.

Farg'ona vodiysi ko'lamida terapiya xizmatini takomillashtirib borishishlariga doimiy otaliq yordami ko'rsatildi.

Andijon viloyati terapevtlari ilmiy jamiyati ishi oxirgi 30 yil davomida tashkil etilib va boshqarilib borilmoqda. Namangan va Farg'ona viloyatlari terapevtlari jamiyatlariga ham konsultativ-maslahat yordamini ko'rsatib bordi.

Kafedra tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan tez tibbiy yordam xizmatini kardiologiya va terapiya bo'yicha yangi strukturasi viloyatda rivojlantirildi, zamonaviy diagnostik va terapevtik texnologiyalarga asoslangan standartlar amaliyotga joriy etildi, vodiy davolash muassasalariga yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab berdi.

Profilaktik tibbiyot O'zbekiston ko'lamida ixtisoslik sifatida tasdiqlantirildi va uning metodologiyasi tibbiyotning barcha bo'g'inlariga kiritila boshlandi.

Skriningli profilaktikaga asoslangan donozologik diagnostika usullari O'zbekiston sharoitidan kelib chiqib ishlab chiqildi va davolash muassasalariga O'zbekiston sharoitida joriy etila boshlandi.

Tug'ish yoshidagi ayollarda ekstragenital kasalliklarni barvaqt aniqlash, bartaraf, hamda profilaktika qilish usullari O'zbekiston sharoitida ishlab chiqildi, takomillashtirildi, amaliyotchi shifokorlar faoliyatiga kiritildi.

Asosiy surunkali noinfeksion kasalliklarni yangi xatar omillari (pestitsidemiya, giperurikemiya, dizioniya, hazm fermentlari gomeostazining buzilishi) aniqlanib, ularni bartaraf qilish algoritmi va texnologiyalari amaliy tibbiyotga joriy etildi.

O'smirlarda yurak-qon tomir va surunkali noinfeksion kasalliklar profilaktikasiga oid yangi texnologiyalar yaratildi, davolash-profilaktika muassasalariga Respublika ko'lamida faoliyat uchun kiritildi.

Avtomobil ishlab chiqarish bilan aloqador aholiga asosiy yurak-qon tomir kasalliklari profilaktikasi, klinik kechishi, profilaktikasi va dispanserizatsiyasiga oid takomillashtirilgan texnologiya yaratildi, iqtisodiy-tibbiy talofatlarni keskin kamaytirib samara beruvchi usullar tibbiyot amaliyotining birinchi bo'g'inlariga joriy etildi.

Iqlimiy o'zgarishlar va geofizikritmlarning aholi organizmiga hamda yurak - qon tomir va "surunkali-urgent" terapevtik kasalliklar (bronxialastma, yurak etishmovchiligi, revmatik isitmalash, siydik yo'llarini o'tkir yallig'lanishi kasalliklari, YUIK, gipertoniya kasalligi, kardiovaskulyar kontinium) bilan xastalangan bemorlarga salbiy ta'sirni bartaraf qiluvchi, ogohlantiruvchi va engillashtiruvchi profilaktik hamda terapevtik texnologiyalar ishlab chiqildi, amaliyotga tatbiq qilindi.

Giyohvandlikka chalingan aholi orasida surunkali noinfekcion kasalliklarni davolash usullari ishlab chiqildi, tibbiyot muassasalarining barcha bo'g'inlariga joriy etildi va keng shifokorlar amaliyotiga kiritildi. VICH-infeksiyasi/OITS fonida ichki kasalliklarni davolash va profilaktikasiga oid yangi texnologiyalar ishlab chiqildi.

Farmako epidemiologik monitoring tizimi yaratildi va amaliyotga keng joriy qilindi.

Jamoa 19 yil qatorasiga reyting balli to'plami bo'yicha institutda birinchi o'rinni olib keladi, "Eng yaxshi kafedra" va "Eng yaxshi kafedra" mudiri 2017 yil Respublika miqyosida "eng yaxshi professor" nominatsiyalarini mutloq g'olibi bo'lib hisoblanadi. 2014-2017 yil davomida ayniqsa, tobora yuksalish kuzatildi va yil yakunlari bo'yicha jamoa yanada eng yuqori ballarga ega bo'lib, rektorat tomonidan rag'batlantirilgan.

